Inson taraqqiyoti insonning tanlovini kengaytirish jarayoni bo'lib, inson farovonligining erishilgan darajasini tavsiflaydi. Imkoniyatlarning kengayishi ma'lum darajadagi daromadning mavjudligi, sog'lom va uzoq umr ko'rish, zarur bilimlarni egallash bilan bog'liqligini yuqorida ta'kidlagan edik. Biz ushbu muammolar zamonaviy jamiyatning deyarli har bir a'zosi uchun asosiy bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi va ularni hal qilish inson rivojlanishining quyidagi omillarini belgilaydi: a) ixtiyoriy daromad darajasi; b) ta'lim darajasi; c) tug'ilishda kutilayotgan umr ko'rish.

MINTAQADA ZIYORAT TURIZMI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

G.D.Xasanova, *i.f.n., dots.*
A.Ch.Boboev, *i.f.n., dots.*
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev Islom hamkorlik tashkilotining Birinchi sammitida so‘zlagan nutqida tashkilotning 2016-2025 yillarga mo‘ljallangan Harakat dasturini qo‘llagan holda iqlimning global o‘zgarishiga, tuproq degradatsiyasiga, foydalaniladigan erlar kamayib borayotganligiga, cho‘llanish va qurg‘oqchilik masalalariga alohida to‘xtalib o‘tgan edi.

Bunday global va mintaqaviy muammolarni hal qilishda barqaror turizmning, shu jumladan, ziyorat turizmining roli beqiyosdir. Barqaror turizm shunday sohaki, u jamiyat ehtiyojlarini qondiradi va muvaffaqiyatlarni saqlab qoladi, kelajak uchun imkoniyatlar yaratadi.

Dunyoda turizmning 200 dan ortiq turlari bo‘lib, ular orasida ziyorat turizmi tez rivojlanayotgan, istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ilgari tarixiy, madaniy turizm bilan cheklanib qolingan bo‘lsa, oxirgi besh yilda safari (cho‘l), etnografik, gastronomik yangi yo‘nalishlar qatorida ziyorat turizmiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki O‘zbekiston bu borada yuqori salohiyatga ega bo‘lib, imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olmayotgani ayni haqiqat.

Islom sivilizatsiyasi beshigi, ma’rifat va madaniyat markazi sifatida tanilgan yurtimizda dinimiz rivoji, jahon ilmu fani taraqqiyotiga hissa qo‘shgan allomalar, mutafakkir olimlar, ulamolar va ulug‘ avliyolar etishib chiqqan. Dunyoda ularning ziyoratgoh va muborak qadamjolarini ziyorat qilishga ehtiyoj yuqori. Ayni shu maqsadda, ya’ni o‘zga madaniyatlar bilan yaqindan tashishish, boshqa hudud tarixi, muqaddas ziyoratgohlari haqida tarixiy bilimlarga ega bo‘lish, muborak manzillarni ziyorat qilishga qaratilgan ziyorat turizmi shakllandi.

Ziyorat turizmi sayohatchi va ziyoratchilarning diniy (avliyolar hayoti), tarixiy (muqaddas joylar tarixi haqidagi) ma’lumotlarga ega bo‘lish, falsafiy dunyoqarashni kengaytirish, ziyoratgohlardagi arxitektura va san’at asarlaridan ma’naviy va estetik zavq olish maqsadida odatiy yashash muhitidan tashqarida joylashgan muqaddas joylarga dunyoviy sayohati yoki ibodatidir. Mamlakatdagi 3,5 ming turistik ob’ektlar bevosita islom diniga aloqador. Ularning aksariyati asosan Buxoro, Samarqand va Toshkentda joylashgan.

CrescentRating musulmon turizmiga ixtisoslashgan guruh ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda musulmon sayyohlar segmenti oshib bormoqda. 2026 yilga kelib sayyorada islom diniga e’tiqod qiluvchi sayyohlar soni 230 millionga etadi.

O‘zbekiston bugun dunyoga yangi imkoniyatlarni ochayotgan, barqaror rivojlanayotgan, ziyorat va sayohat uchun xavfsiz mamlakat sifatida yanada kengroq tanilmoqda. Prezidentimiz tomonidan “Tabarruk ziyorat” turizm konsepsiyasining tasdiqlanishi, yaqinda bo‘lib o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammitida O‘zbekiston a’zo davlatlarda 2023 yilni turizmni rivojlantirish yili deb e’lon qilishi uning xalqaro ahamiyatini yaqqolroq namoyon etdi. Albatta amalga oshirilayotan islohotlar xorijliklarning yurtimizga tashrifi uchun muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekistonning ziyorat turizmida salohiyati katta - yil boshidan mamlakatga milliondan ortiq sayyoh tashrif buyurgan. Turizm vazirligi prognozlariga ko‘ra, yil so‘nggiga kelib sayyohlar soni 4,5 million kishiga etishi mumkin.

Hozirgi kunda ziyorat turizmi salohiyati yuqori bo‘lgan Indoneziya, Malayziya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh va arab davlatlaridan ziyoratchilarni mamlakatimiz tarixiy shaharlari, xususan Buxoroga tashrifi sonini oshirish belgilangan. Bilamizki, Buxoro islom dinining markazi, sharif shahar, faxrli shahar, shaharlar imomi kabi nomlar bilan e’zozlanadi. Shahar, ayniqsa, naqshbandiya tariqatiga asos solgan zamin bo‘lganligi bois ham ma’lum va mashhur. Bugun dunyoda 40 mln.dan ortiq naqshbandiylar mavjud. Ularning aksariyati Turkiya, Malayziya va Indoneziyada istiqomat qiladi. Mazkur tariqatning etti piri ziyoratgohlarining ham bir joyda, ya’ni Buxoroda ekanligi musulmon ziyoratchilari, ayniqsa, naqshbandiylarni o‘ziga doim chorlab turadi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)dan boshlangan “silsilai zahhob” (oltin zanjir) halqalarining o‘ninchidan o‘n oltinchigacha bo‘lgan piru komillari - Abduxoliq G‘ijuvoniy, Orif Revgariy, Anjir Fag‘naviy, Ali Romitaniy, Boboyi Samosiy, Amir Kulol va Bahouddin Naqshbandlar bir zaminda ekanligi kamdan kam musulmon mamlakatlarida uchraydigan ziyorat yo‘nalishidir.

Xalq orasida “ETTI PIR” nomi bilan mashhur, vohaning beshta tumanida joylashgan 160 kmlik ziyorat yo‘nalishini tashkil etuvchi mazkur ziyoratgohlar bugun xalqaro ziyorat yo‘nalishiga kiritildi. Davlat dasturlari doirasida ziyorat yo‘llari ta’mirlana boshlandi. Har bir ziyoratgohda halol talablariga javob beradigan mehmonxonalarning barpo etilgani ziyoratchilarga qulaylik yaratish bilan birga, vohada qolish davomiyligini uzaytirdi.

Bugungi kunda Buxoroda 29 ob’ekt ziyorat turizmi yo‘nalishiga kiritilgan. Lekin vohada yana boshqa ko‘plab ziyoratgohlar mavjud bo‘lib, ularda infratuzilma yaxshi bo‘lmagani bois mahalliy darajada qolib ketgan. Birgina Buxoroning 500 gektarlik eski shahar qismida 83 ta, voha tumanlarida 200 dan ortiq shunday ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar mavjud. Prezidentimiz topshirig‘iga ko‘ra Buxoroda ziyorat turizmi ob’ektlari infratuzilmasini yaxshilash uchun mahalliy byudjetdan 40 milliard so‘m ajratilgani ziyoratgohlarni xalqaro yo‘nalishga kiritishda muhim qadam bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga

oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta’minlash, shuningdek Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 sentyabrdagi “2022-2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 543-sonli Qarori qabul qilindi.

1-jadval

2022 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil	2026-yil
1.	Ichki turistlar tashrifi soni (mln kishi)	2,4	2,9	3,4	3,8	4,1
2.	Xorijiy sayyohlar soni (ming kishi)	450,0	900,0	1,200	1,500	1 800
3.	Xizmatlar eksporti (mln AQSh doll)	121	200	230	270	300
4.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming)	5,399	6,131	6,721	7,336	7,976
5.	Mehmonxonalar nomyer fondining bandlik darajasi	45,0	51,0	61,0	1,0	93,0
6.	Joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar soni (ming)	12,147	13,672	14,902	16,182	17,512
7.	Mehmonxonalar soni (dona)	178	198	218	238	258
8.	Oilaviy mehmon uylari soni (dona)	264	314	325	335	345
9.	Xostellar soni(dona)	55	61	66	71	76
10.	Internet (4G va 5G texnologiyalarini hisobga olgan holda) qamrovi darajasini oshirib borish	7	8	9	10	11

Ushbu qarorga muvofiq 2022 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari prognozlashtirildi (1-jadval).

Shuningdek, ushbu qarorga muvofiq, Buxoro viloyatida 2022 — 2026-yillarda xorijiy va mahalliy turistlar sonini 5 mln nafarga, eksport hajmini 600 mln AQSh dollariga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilandi.

Turizm vazirligi oldiga ziyorat turizmi salohiyati yuqori Indoneziya, Malayziya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh va arab davlatlaridan Samarqand, Buxoro va Toshkentga aviareyslarni ko‘paytirish vazifasi qo‘yilgan. SHu munosabat bilan Islom akademiyasi, “Ipak yo‘li” universitetiga muddatda ziyorat turizmi oqimi ko‘p bo‘lgan davlatlar uchun ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish topshirilgan.

Davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ziyorat turizmini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgani bilan alohida e’tiborga molik. Farmonda ziyorat turizmini taraqqiy ettirish va uning istiqbollari bo‘yicha qator muhim masalalar o‘rin olganki, bu sohaning aniq va tizimli rivojlanish tendensiyalarini belgilab beradi.

Yaqin kunlarda mas’ul tashkilotlar bilan hamkorlikda Imom Moturidiy yodgorlik majmuasini ziyorat markaziga aylantirish hamda atrofidagi 8 nafar buyuk ulamo qabrlarini tiklash va obodonlashtirish ishlari konsepsiyasini, uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqamiz. Bu ham juda muhim masalalardan biri hisoblanadi hamda ushbu yo‘nalishdagi ishlarni tizimli va o‘z vaqtida samarali tashkil etishga xizmat qiladi. O‘z navbatida, moturidiya ta’limotiga ergashuvchi millionlab insonlarning ziyorat markaziga aylanishiga zamin yaratadi.

Samarqand shahrida islom dini, mintaqadagi mavjud din namoyandalari merosi va moddiy madaniy meros obyektlarini aks ettiruvchi tematik xiyobonni yaratish

tashabbusi ham yurtimizga kelgan har qanday sayyohda boy tariximiz, buyuk allomalarimiz haqida tugal ma’lumot olishi uchun muhim maskan bo‘ladi.

Buxoro shahrida islom dini tarixi va musulmon olamida mashhur bo‘lgan shaxslar to‘g‘risida ma’lumot beruvchi innovatsion muzeyni qurish hamda uni rivojlantirish masalasi ham tom ma’noda tarix va bugunning uyg‘unligini o‘zida aks ettiradigan loyiha bo‘ladi.

Xuddi shu yo‘nalishda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi ham mutaxassislar tayyorlamoqda. Jumladan, ushbu oliy o‘quv yurtida “Ziyorat turizmi” yo‘nalishida talabalar qabuli tashkil etilgan bo‘lib, islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish — ISESCO hamda UNESCO va jahon dinlarini qiyosiy o‘rganish kafedralari faoliyat yuritmoqda. Samarqand shahrida “Ipak yo‘li” turizm xalqaro universiteti ham bu sohada malakali kadrlar zaxirasini etishtirmoqda.

Jumladan, yurtimizdagi yirik ziyoratgohlar, shuningdek, Imom Moturidiy, Imom Buxoriy, Imom Nasafiy, Naqshbandiy va YAssaviy kabi ulug‘ allomalarning boy ilmiy meroslarini dunyoga keng targ‘ib qilish maqsadida tajribali imom-xatiblarimizdan iborat targ‘ibot guruhi shakllantirildi. Endilikda ushbu guruh reja asosida Rossiya, Qozog‘iston, Turkiya, Malayziya, Indoneziya va Pokiston kabi davlatlarga jo‘natiladi.

Bugungi kunda ichki ziyorat turizmini rivojlantirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilyapti. Xususan, yoshlarimizni o‘z ajdodlari kim ekanidan to‘liq xabardor qilish, tanitish, shonli tariximizni o‘rgatish, buyuk bobolarimizga munosib voris bo‘lib voyaga etkazish uchun mintaqaviy ziyoratgohlar dasturi doirasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Qolaversa, hozirgi kunda ishchi guruh tomonidan mamlakatimizning har bir hududida ziyorat turizmiga xizmat qiluvchi sayyohlik firmalarini ochish bo‘yicha amaliy sa’y-harakatlar olib borilmoqda. Bu kabi sa’y-harakatlar Prezidentimiz farmonidan keyin yanada jonlanadi va turizmni rivojlantirish orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti boyib boradi.

Umuman olganda, ziyorat turizmi islom dini va madaniyati tarixini chuqurroq o‘rganish, mamlakatimizning sayyohlik nufuzini oshirish, uni ziyorat turizmi markazi sifatida tanitishda o‘rni beqiyos. Bu boradagi ishlarni amalga oshirishda xorij tajribasi bilan, sohada tajribali mutaxassislar, tadqiqot olib borayotgan olimlarni jalb etish maqsadga muvofiq. Ilmiy yondashuvlarga asoslangan holda sohani yo‘lga qo‘yish mustahkam poydevor quyish bilan barobar. Zero, ilmga tayanilgan har qanday ish o‘z samarasini kutilganidan ko‘p berishi allaqachon o‘z isbotini topgan. Sohaga qaratilayotgan e’tibor, davlat islohotlari, uzoqni ko‘zlangan dasturlar yurtimizni sayohatlar chorrahasi, turizm markaziga aylantirishi shubhasiz.

O`ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINI MOLIYALASHTIRISHNING XITOY TAJRIBASI BILAN QIYOSIY TAHLILI

A.Yu.Agabekob, *IYIU i.f.n.,dotsent*
J.Nurjaev, *IYIU talabasi*

Xitoy 1,4 milliard aholisi bo'lgan ulkan mamlakatdir. Va barcha oilalarni mu-nosib uy-joy bilan ta`minlash oson ish emas. Jamiyat barqarorligi va iqtisodiyot-ning